



ENG QADIMIY SHAHAR

Otarbaeva Malika Ongarbaevna
*Berdoq nomidagi QDU tarix ta'lim
yònalishining 3-boshqish talabasi*

Annotatsiya: Ushbu moqalada Òzbekiston hududidagi ilk shahar hisoblangan Surxondaryo viloyatidagi Jarqo'ton haqida, uning izlanish tarixi, nomining kelib chiqishi, 1973-yildan boshlabgi, shu bilan birga mustaqillik davriga kelib ham olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari kòrsatilgan.

Kalit sòzlar: Bòstonsay, bronza davri, ark, shahriston, nekropol, Sopolli madaniyati, odam byusti, yevrapoid irqining sharqiy òrtayer dengizi tarmog'i, shaharmonand.

Annotation: This article describes the history of Zharkoton in Surkhandarya region, the first city in Uzbekistan, the origin of its name, the research conducted since 1973 and the period of independence, and their results.

Key words: Bòstonsay, bronze age, ark, city, necropolis, Sopolli culture, human bust, eastern Mediterranean branch of the Europoid race, city monad.

Bilamizki, Òzbekiston davlatchiligi tarixi 3500 yildan kam emasligi haqidagi ma'lumotlarni tarixchi-olimlar tarafidan e'tirof etilgan. Bu fikrga kelishiga sabab ham Jarqòton yodgarligi hisoblanadi. Chunki, yodgarlikdan topilgan materiallar davlatchilik tarixining 3500 yildan kam emasligini isbotlamoqda.

Jarqòtan yodgarligi Surxondaryo viloyati Sherobod daryosining kòhna òzani Bòstonsay yoqasidadir. Yodgarlik sopollitepaliklar asos solgan ilk shahar hisoblanadi. U Bo'stonsoyning chap sohilida joylashgan bo'lib, 100 ga maydonni egallagan. Bu erning aholisi ham dehqonchilik bilan shug'ullanib, kamida 500 yil shu erda yashaganlar. Ayirim ma'lumotlarda Jarqo'ton uch qismdan iborat deb kòrsatildi.¹ Uning arki 3 ga maydonni egallagan. Arkning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. U erda hukmdorning qarorgohi joylashgan. Mudofaa devori somon qo'shilgan xom g'ishtdan ishlangan. Devor qalinligi 3m, balandligi 5-6m bo'lgan. Hozirda saqlangan qismi I m gacha boradi. Devor kvadrat shaklidagi



burjlar bilan mustahkamlangan. Arkka kirish darvozasi janub tomonida joylashgan. Arkda hukmdor saroyi alohida ajralib turadi. Saroyda ko'p oddiy xonalar bo'lib, saroy maydonida 20kv.m supa joylashgan. Arkning sharqiy tomonida bir necha uy-joy massivlari topilgan. Ular 1.5 m qalinlikdagi supa ustiga qurilgan. Bu yerda ko'p xonali hovlilar ochildi. Har bir hovlida 2-3 ta o'choq topilgan. Shaharning janubida 20 ga maydonni egallagan shahar qabristoni topilgan. Jarqo'tonda otashparastlik ibodatxonasi ochildi. Ibodatxonaning atrofi 4.5 m qalinlikdagi devor bilan o'rab olingan. Ibodatxona ikki qismdan muqaddas ziyoratxona va xo'jalik qismlaridan iborat bo'lgan. Ibodatxonaning muqaddas qismi kvadrat shaklida bo'lib, 35x35 metrga teng. Uning tarkibida muqaddas olov, muqaddas quduqlar, altarlar va 4 bosqichga doir tosh yo'laklar bo'lgan. Bular yerga, suvga, olovga sig'inish unsurlari hisoblanadi. Ibodatxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik qismida muqaddas ichimlik-xaoma tayyorlaydigan xona, mozor 71 inventarlari tayyorlaydigan ustaxonalar va ibodatxonaga ajratilgan oziq-ovqat ombori joylashgan. Ibodatxonada hech kim yashamagan, u faqat olovga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar va diniy marosimlar o'tkazish markazi bo'lgan.

Lekin, biz Jarqòtonda ikki qismdan iborat degan ma'lumotlarni ham uchiratamiz , ya'ni "Arki a'lo" va "Shahriston" dan iborat.² Arki a'loda shahar hokimining qarorgohi-hukmdor saroyi joylashgan. Arki a'loga tutashgan holda, uning sharqiy va janubiy tomonida, bu shaharning asosiy aholisi- dehqonlar va hunarmandlar yashagan "shahriston" joylashgan. Shahristondan janubda, qadimgi ariq qoldig'ining orqa tomanida, Bòstonsay jarlari bòlib, kamida 20 gektar maydonni egallagan nekrapol, ya'ni shahar qabristoni joylashgan.

Yodgorligining ochilishining òzi kutilmagan tarzda yuz bergan. Qadimgi shahar madaniyatining yana bir nodir obidalaridan biri- Sopollitepada arxeologik qazishma ishlari yakunlayatgan vaqtda Jarqo'ton haqida xabar keladi. Òsha kezlarda Leningradtan B.M.Masson boshchiligidagi bir guruh arxeologlar



Surxondaryoning Angor tumanidagi antik davr obidasi Zartepada qazishmalar olib borgan edi. O'sha yili A.Asqarov Zartepaga B.M.Masson boshchiligidagi guruhning qazishma ishlarini bilan tanishgani keladi. Kutilmaganda arxeologlar joylashgan kolxoz dala shiyponida arxeolog Shokir Pidaev topib kelgan sopol parchalarga A.Asqarovning kòzi tushadi.Sopol parchalarini kòzdan kechirar ekan, ushbu topilma bronza davrining noyab yodgorligi Sopollitepa materillariga o'xshashligini eslab, Sh.Pidaevni yangi nayob yodgorlik bilan tabrikladi va darhol yangi obiekt bilan tanishib kelishlikni kasbdoshlariga taklif qilgan.

Yodgarlikni o'rganish ishlarini iyun oyining jazirama paytidan boshlangan. Qadimgi ko'hna shaharni hozirgi Guliston jamoa xòjaligi tarafidan buzilib, ekinzorga aylantirilgan qismida suv yuvib ketgan jar kesmasida ochilishib qolgan qabrga arxeologlarning kòzi tushdi va bu yodgorliklarni bronza davriga tegishli ekanligiga ishonch hosil qilishdi. Ular o'rganish mobaynida eng avvalo nimaga yodgorlikning Jarqo'ton deb atalishiga qiziqdi. Keksalarning guvohlik berishiga qaraganda, 1950-yillarning boshlarida bu joyda Bòstonsay jarliklari ustida Guliston jamoa xòjaligining yirik shoxli hayvonlari uchun bir necha charvo qòtonlari barpo etilib, shundan boshlab atrof-aholi bu joyni jarliklardagi qòton, ya'ni Jarqo'ton deb atay boshlagan ekan.

Kòp yillik izlanishlar davomida Jarqo'tonni haqiqatda O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar ekanligini isbotlovchi juda boy ashyoviy dalillar topildi.

Yodgarlik 1973-yildan boshlab uzliksiz tadqiqotlar ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar natijasi kòhna shaharning paydo bolib rivojlangan sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz bergan tarixiy-madaniy jarayonlarni bir necha bosqishlarga ajiratib kòrsatish imkonin berdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga kòra Jarqo'tondagi qadimgi shahar hayoti dastlab uch boshqishda ya'ni Jarqòton (mil.avv 1500-1350-yillar), Kòzali (mil.avv 1350-1200 yillar), Mòllali (mil.avv 1200-1000 yillar) boshqichlariga bòlingan. Keyinroq, Jarqòtanning qarama-



qarshisida, Bòstonsoyning òng sohilida òrganilgan yodgarlikdagi tadqiqodlar natijasida Mòllali boshqichini ikki fazaga ya'ni Mòllali (1200-1000 yillar) va Bòston(1000-900 yillar) fazalarina bòlib òrganish imkoniyati paydo bòldi.³

Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mil. avv. II ming yillikning òrtalariga kelib Jarqo'ton òsha hududlardagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aynan, mana shu istehkom orqali Hisor toғ aldi vohalari va janubiy Tojikistanning ġarbiy hududlariga shimoldagi aholining kòshishlari bòlib òtadi. Hududlardan topilgan yodgarliklar topografiyasi va ularni davrlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bòlib òtganligini kòrsatadi. Undan tashqari yana shu narsa ma'lumki, bu jarayonning rivojlanishi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarimi Amudaryoning òng qirgògidagi òtroq dehqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining òsishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaradi.

Mustaqillik davrga kelib ham òlkada qazishma ishlari davom etgan. Masalan, O`zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1994-2003-yillarda Jarqo`ton yodgorligida qazishma ishlari olib borildi.³ Qazishmalar natijasida Jarqo`tondan odam byusti ya'ni portret janrida yasalgan odamning haykali topilgan. Haykal loydan yasaliq quyoshda quritilgan ammo olovda kuydirilmagan shu bois haykal yaxshi holatda saqlanmagan. Shu davrga mansub haykallari asosan bronza davri qabrlaridan topilgan. Bazi qabrlardan marhum mayiti bo`lmasdan haykalchalar yoki qo`y suyagi qoldiqlari topilgan. Akademik A.A. Asqarov bunday xildagi qabrlardagi dafnlar kenataf dafnlar deb ataydi, ya`ni qabiladoshidan biror kishi bedarak yo`qolib qaytib kelmasa marhum qabriga uning mayiti o`rniga haykalcha yasaliq qabrga dafn qilingan yoki marhum chorva molidan birini olib qabrga dafn qilingan.⁴ Jarqo`ton ibodatxonasining xo`jalik-xizmat qismidan ham Jarqo`tondan odam haykaliga o`xshash, loydan yasalgan lekin, olovda



kuydirilmagan ustidan qizil bo'yoq sepilgan haykalchalar topilgan. Jarqo'ton yodgorligida alohida ibodatxona inshooti va qabristonning paydo bo'lishi esa Sopolli madaniyatining Ko'zali davriga to'g'ri keladi. Demak, Jarqo'ton odam haykali Sopolli madaniyatining Ko'zali yoki Mo'lali davrlariga tegishli bo'lishi mumkin va Jarqo'ton ibodatxonasining xo'jalik xizmat hunarmand ustalari tomonidan kenataf qabrlar uchun yoki boshqa diniy urf-odatlar maqsadida tayyorlangan. Jarqo'ton portret haykali kuydirilmaganligi uchun, asl holicha saqlanmagan, haykal sinib bo'laklarga bo'linib ketgan, quloqlari va burni sinib, sho'rlanish natijasida yemirilib ketgan balki o'sha davr urf-odatiga binoan insonlar tomonidan atayin sindirilgan bo'lishi ham mumkin.

Haykalda anatomik tuzilishiga ko'ra yevrapoid qiyofali inson tasvirlangan.⁵ Bu davrda tegishli bo'lgan Sopollitepa va Jarqo'ton qabrlarning o'rganilishi natijasida Sopolli madaniyati aholisi antropologik kelib chiqishi jihatidan yevrapoid irqining sharqiy o'rtayer dengizi tarmog'iga mansubligi aniqlangan va buni o'rganayotgan haykalimiz ham antropologik dalil sifatida tasdiqlamoqda.⁶

Ko'pchilik olimlarning e'tirof etishlaricha, O'rta Osiyoning janubida ilk shahar va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni B.M.Masson tomonidan nisbatan aniqroq izohlangan. Tadqiqotchi bu jarayonda ikkita asosiy bosqichni ajratadi: 1) ma'lum vohalarda shahar-davlatlarning paydo bo'lishi; 2) ular asosida yirik ijtimoiy-siyosiy tizimning shakllanishi.

I.V.Rtveladze esa o'zining songi yillardagi ishlarining birida O'zbekiston hududidagi ilk davlatchilik asoslariga toxtalib o'tib, mil.avv II ming yillikning ikkinchi yarimi O'zbekiston janubida embrional shakldagi davlatga o'xshash tuzilma qaror topadi, davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda o'z aksini topgan deyish mumkin, degan fikrni ilgari suradi.

Bronza davrida esa olkamizning o'troq jamoalari dehqonchilik madaniyati rivojining yangi darajasiga o'tgan. Agar, Sopollitepa avvaldan o'ylangan reja



asosida qurilgan shaharmonand (protogorod)ning belgilari kòzga tashlansa, Jarqo'ton esa Òzbekiston hududlardagi ilk shahar rivojlanishining boshqacharoq namunasini aks ettiradi. I.V.Rtveladze fikricha Jarqo'ton bir nechta qishloqdan iborat bòlib, uning hududi aholining turli guruhlari tomonidan bosqichma-bosqich òzlashtirilgan. Olimning hisoblashicha, shahar tizimining rivoji ma'lum sxemada bòlib òtgan: ilk qishloq yoki qishloqlar guruhi - shaharmonand.

Maqolaning yakuni sifatida shuni aytish joizki, bronza davri Janubiy O'zbekistonda yashagan òtroq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori poǵonasida bòlib, ibtidoiylikning sòngi bosqichidan civilizaciyaga òtadilar. Ushbu civilizaciyaning boshlanishi shaharmonand(protogorod) namunalarini aks ettirgan Sopollitepa bòlgan bòlsa, Jarqo'ton Òzbekiston hududidagi ilk shaharlarning yorqin misoli edi.

FOYDALANILGAN A'DABIYOTLAR:

1. N.A.Egamberdieva "Arxeologiya" 71-б Toshkent-2011
2. A.Asqarov "Eng qadimiy shahar" 3-б Toshkent-2001
3. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. Ташкент, 1977.
4. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент, 1983
5. Абдуллаев Н.У. "Санъат тарихи" Тошкент, 1987
6. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. Ташкент, 1973.